

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HARBIY QISMLARIDA YORDAMCHI XO‘JALIK FAOLIYATINI IQTISODIY, NAZARIY ASOSLARI VA AHAMIYATI**Mullayev Baxtiyor Yax‘oyevich***O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
magistratura tinglovchisi**Hammuallif***Jummayev Ma‘mur Nuritdinovich***O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
magistratura tinglovchisi*

Annotatsiya: *Hozirgi kunda harbiy qismlardagi yordamchi xo‘jaliklar faoliyatini iqtisodiy takomillashtirish va yurtimizda xavfsiz oziq-ovqat zaxirasini kengaytirish, yordamchi xo‘jaliklar faoliyatida bo‘sh turgan yerlardan foydalanish uchun xususiy sherikchilikka topshirish va bu orqali tadbirkorlik faoliyatiga keng imkoniyat yaratish, yordamchi xo‘jaliklar faoliyatida klaster tizimini yaratish orqali tayyor tovar mahsulotlar bilan bozorni to‘ldirish, sohaga oid mutaxassislarni jalb qilgan holda yordamchi xo‘jaliklarning faoliyatini yanada rivojlantirish, yangi shtat birligini yaratish orqali ishsizlikni qisman bo‘lsada oldini olish muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada yordamchi xo‘jaliklar tomonidan sifatli va xavfsiz oziq-ovqat zaxirasini yaratishning nazariy asoslari, xususiy sherikchilik va klasterning ahamiyati to‘g‘risida ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar: *Yordamchi xo‘jalik, klaster, xususiy sherikchilik, Tovar va mahsulotlar, chorvachilik, parandachilik, harbiy qism.*

Аннотация: *В настоящее время экономическое совершенствование деятельности подсобных хозяйств в воинских частях и расширение безопасных продовольственных запасов в нашей стране, передача свободных земель для деятельности подсобных хозяйств в частные товарищества и создание тем самым широких возможностей для предпринимательской деятельности, кластер в деятельности подсобных хозяйств. Важно наполнить рынок готовой продукцией путем создания системы, дальнейшее развитие деятельности подсобных хозяйств за счет привлечения специалистов в области, предотвратить безработицу хотя бы частично за счет создания новых государственная единица. В данной статье подчеркивается важность частного партнерства и кластеров для создания качественного и безопасного продовольственного снабжения подсобных хозяйств.*

Ключевые слова: *Вспомогательное хозяйство, кластер, частное партнерство, Товары и продукция, животноводство, птицеводство, воинская часть.*

Annotation: *Currently, the economic improvement of the activities of auxiliary farms in the military units and the expansion of safe food reserves in our country, the transfer of vacant land for the activities of auxiliary farms to private partnerships and thereby creating a wide opportunity for entrepreneurial activity, the cluster in the activities of auxiliary farms It is*

important to fill the market with ready-made products by creating a system, to further develop the activities of auxiliary farms by attracting specialists in the field, to prevent unemployment at least partially by creating a new state unit. This article highlights the importance of private partnerships and clusters to create a quality and safe food supply by subsidiary farms.

Key words: *Auxiliary economy, cluster, private partnership, Goods and products, animal husbandry, poultry farming, military unit.*

Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbuslari bilan mamlakatimizda so'nggi yillarda harbiy qism va muassasalarning yordamchi xo'jaliklarida har bir sohada bo'lgani kabi ilg'or o'zgarishlar yuz bermoqda. Bugungi kunda harbiy qism yordamchi xo'jaliklarni zamonaviy texnika texnologiyalar bilan boyitilib borish, umuman olganda harbiy qismlarning yordamchi xo'jaliklarning infratuzilmasini yaxshilash va ularning sifatli va xavfsiz oziq-ovqat zaxirasini yaratish bo'yicha samaradorligini oshirish va davlatimizda olib borilayotgan qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlardan xabardor bo'lish yordamchi xo'jaliklar xodimlar ma'suldir. Xususan, har bir viloyatlarimizda joylashgan harbiy qism va muassasalarning yordamchi xo'jaliklari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 23- oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq yordamchi xo'jaliklarni isloh qilish, xususan sohada davlat boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va sotib oluvchilarga tayyor mahsulot sifatida etkazib berish vazifalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Harbiy qism yordamchi xo'jaliklarning faoliyatida so'nggi yillarda yangi texnologiyalarni kiritishdan oldin uning faoliyatidagi qishloq xo'jaligi ishlarini bajarishga shu harbiy qismning harbiy xizmatchilari jalb qilinardi yoki ishlarni bajarish uchun hududagi fermer xo'jaliklardan pudrat shartnomasi tuzilib bir yil muddatga pudratchiga berilar edi. Hozirgi kunda xususiy sherikchilik asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish bo'yicha shartnomalar uzoq muddatga, kamida besh yilga tuziladigan bo'ldi va harbiy xizmatchilarning jangovar faoliyati bilan shug'ullanishiga zamin yaratildi.

O'zbekiston Respublikasining 2019- yil 10- may kunidagi "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ 537-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 20- oktabr kunda "Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional bazasini yaratish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ- 3980- sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 13- dekabr kunda "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 1009- sonli qarori, 2020- yil 26- aprel kunda "Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 259- sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 7- iyunda kunda "Davlat-xususiy

shiriklik asosida hududlarda zamonaviy issiqxona xo‘jaliklarini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari yordamchi xo‘jaliklarda davlat xususiy sherikchilikni tashkil etish uchun asos bo‘ldi. So‘nggi yillarda harbiy qism va muassasalarning yordamchi xo‘jaligini yanada rivojlantirish, yerlarning miliarativ xolatini yaxshilash, sug‘orish tizimida zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish ustuvor masala bo‘lib qolmoqda.

Ekin ekishga mo‘ljallanmagan yerlardan chorvachilik va parrandachilikni rivojlantirish va harbiy qism va muassasa shaxsiy tarkibiga go‘sht va go‘sht mahsulotlarini etkazib berish va harbiy qism moddiy fondini shakllantirish va bu orqali harbiy qismdagi xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy holatini yaxshilash, bayramona dasturxonlarda beriladigan mahsulotlarini turini ko‘paytirishga erishish, harbiy qismga zarur bo‘lgan moddiy vositalar bilan ta‘minlash va davlat budjeti qisman bo‘lsada taqchiligini olgan bo‘lamiz.

Hozirgi kunda harbiy qismdagi yerlarning joy, iqlim sharoiti, suv resurslar bilan ta‘minlanganlik darajasiga qarab ekin navlari va bog‘dorchilik ko‘chatlarini tanlash va sohaga oid mutaxassislarni jalb qilgan holda hosildorlikka erishish, yordamchi xo‘jaligining samaradorligini oshirish asosiy maqsad qilib olingan.

T/r	Ko‘rsatkichlar nomlanishi	
	01.01.2021 y. holatiga qoldik	13 001 976
	2021 yil davomidagi daromad	59 496 000
1	Bug‘doydan tushgan daromad	20 230 500
2	Pomidor va bodiringdan tushgan daromad	8 425 500
3	Tarvuzdan tushgan daromad	8 712 750
4	Somon tushgan daromad	450 000
5	Oshxonadan chiqqan oziq-ovqat maxsulotlari	6 803 250
6	Tur № 134	14 874 000

Ushbu jadvalda Namangandagi harbiy qismning 2021- yildagi tushumlari ko‘rsatilgan. Yordamchi xo‘jaliklarning ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yer va suv resurlaridagi munosabatlarini takomillashtirish, qulay qishloq xo‘jaligi tadbirkorlik muhitini va yuqori qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, harbiy qismlardagi yordamchi xo‘jaliklarning autsorsing tizimidagi firma munosabatlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, sohaga bozor mexanizmlarini kiritish, qishloq xo‘jaligiga oid zamonaviy va keng texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish hamda kadrlar salohiyatini oshirish ustuvor vazifa qilib belgilangan. Buning natijasida 2022- yilga kelib iqtisodiy jihatdan ko‘rsatgichlar o‘sganligini quyidagi jadvalda ko‘rishmiz mumkin.

T/r	Ko'rsatkichlar nomlanishi	
01.01.2022 y. holatiga qoldik		33 740 954
2022 yil davomidagi daromad		100 365 000
1	Pomidor va bodiringdan tushgan daromad	4 817 000
2	Tarvuzdan tushgan daromad	42 812 000
3	Oshxonadan chiqqan oziq-ovqat maxsulotlari	29 600 000
4	No'xat va moshdan tushgan daromad	8 136 000
5	Baliqdan tushgan daromad	15 000 000
01.12.2022 y. ga qadar 2022 yil davomidagi daromad (yil boshidagi qoldiq bilan)		134 105 954

Bugungi kunda yurtboshimiz tashabbuslari bilan suv zaxirasini 2030-yilda prognozlariga asosan paxta dalalari yer maydonlari qisqartirilib bularning o'rniga qishloq xo'jaligida mahsulotlari ishlab chiqarish aynan intensiv bog'larni tizimini shakllantirish va tomchilatib sug'orish tizimini joriy etish, poliz ekinlari va kam suv istemol qiladigan sabzovotlar yetishtirishni kengaytirish va aynan jannatmakon o'lkamiz mevalarini poliz ekinlarini harbiy xizmatchilarning dasturxoniga erkin savdo yarmakalari orqali etkazib berish va hududiy autsiring korxonalariga sotish orqali harbiy qism harbiy shaharchalarida o'zimizning tayyor mahsulotlarimiz bilan to'yintirish loyihalari amalga oshirilmoqda.

Jahon iqtisodiyotida kechayotgan integratsiya jarayoni uning globallashuviga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Bu bir tomondan qo'shimcha qiymat yaratishning transmilliy "zanjirini" ko'zda tutgan holda, ikkinchi tomondan ishlab chiqarish sohasida ham raqobatni kuchaytirmoqda. Globallashish asosida logistika va tovarlar hamda xizmatlar sifatini ham standartlashtirishni ta'minlovchi umumjahon kommunikatsiya tizimi ham rivojlanib bormoqda. Qolaversa, aholi soni muttasil oshib borishi ish bilan ta'minlash, aholi sifatli oziq ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash taqozo etamoqda. Integratsiyalashuvning kichik darajasi mamlakatlar iqtisodiyotida yangi xo'jalik yuritish tizimini shakllantirish yo'li hisoblanib, o'zaro pirovard mahsulot ishlab chiqaradigan va geografik yaqin bo'lgan korxonalar va tashkilotlarni o'z ichiga olgan "Klaster"lar yaratishdan iboratdir. Klasterlarni shakllantirishdan asosiy maqsad viloyat ichidagi harbiy qismlarning yordamchi xo'jaliklarini bir tizimini yaratish va ular bilan yagona texnologik zanjirda bo'lgan ilmiy, injenering, konsalting, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va boshqa xizmatlarni uyg'unlashtirish — innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish asosida raqobatbardosh tovarlar yaratishga yo'naltirishdan iboratdir.

2016- yilda hukumat klaster tizimiga jiddiy e'tibor qaratildi. Bu, birinchi navbatda, harbiy qismda yordamchi xo'jaligiga yuqori texnologiyali sohalarni loyihalashni amalga oshirildi. Davlat nafaqat mahalliy, balki boshqa manbalar hisobidan sanoat va ilmiy markazlar ya'ni yordamchi xo'jaliklarning kuch va g'ayratini birlashtirishni ko'zda tutdi. Shu sababdan barcha harbiy qismlar yordamchi xo'jaliklarni qishloq xo'jaligini rivojlantirish chora tadbirlari ilgari surildi. Bu tizimni kiritish orqali harbiy qism yordamchi xo'jaliklarida qo'shimcha ish o'rinlari yaratiladi va xo'jalikdan samarali foydalanish imkoniyatini beradi va yil davomida yuqori daromad olib keladigan sohalarga aylanadi.

Hozirgi kunda davlatimizda klaster "Erkin ilmiy-texnikaviy zonalar" shaklida tashkil etilmoqda. Erkin ilmiy-texnikaviy zonalar alohida ajratilgan hududlardan iborat bo'lib, u yerda ilmiy va ishlab chiqarish va o'quv markazlari jamlanadi hamda ular uchun ilmiy va ishlab chiqarish imkoniyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus huquqiy tartibot o'rnatiladi. Erkin ilmiy-texnikaviy zonalar yuksak texnologiyalar amal qiladigan zonalar, texnoparklar, mintaqaviy innovatsiya markazlari texnopolislar shaklida tashkil etiladi. Texnoparklar ikkita asosiy komponentlar: ishlab chiqarish sanoatning ilg'or sohasidagi korxonalar va mutaxassislar (universitet, institut, ilmiy-tadqiqot instituti, laboratoriyalarning kuchli guruhlar) dan tarkib topadi va ularning faoliyati raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga yo'naltiriladi.

Mamlakatimiz barcha sohalarda klaster tizimini yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Darhaqiqat, neft, gaz, kimyo, biotexnologiya, farmatsevtika, informatika, avtoqurilish, transport va logistika, rekreatsion-turistik, oziq-ovqat, ta'lim, baliqchilik, parrandachilik, asalarichilik, ipakchilik va boshqa sohalarda klaster tizimlarini yaratish ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni moliyalashtirish hajmini ko'paytiradi, sifatini yaxshilaydi, ilmiy tadqiqot ishlarining texnik ta'minoti darajasini yuksaltiradi, investitsiyaviy tashqi loyihalarda ishtirok etish, ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va malakasini oshirishning yangi imkoniyatlarini yaratadi.

Bundan tashqari, klaster tizimida ta'lim ishlanmalari yaratish, ularni qisqa muddatda sinovdan o'tkazish, ishlab chiqarish va ilmiy izlanishlardagi xodimlar hamda mutaxassislar mehnatlarini ko'proq rag'batlantirish, yangi tovarlar bilan harbiy qismning o'zining mahsulotini nomini ixtiro qilish uchun keng imkoniyatlar va sharoit paydo bo'ladi. Mamlakatimizda aynan, qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun o'ta muhim bo'lgan ko'plab davlat dasturlari har doim mablag' bilan to'liq ta'minlanmay kelgan. Mazkur dasturlarga qishloq xo'jaligining amaliy tadqiqotlari, bilimlarni tarqatish, qishloq xo'jalik fanlaridan ta'lim olish, tuproq unumdorligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligi tizimini rivojlantirish, veterinariya va fitosanitariya xizmatlari, tadbirkorlik faoliyatiga ko'maklashish (qishloq xo'jaligi kooperativlari, klasterlar, samarali sherikchilik munosabatlari), statistik va bozor ma'lumotlarini yig'ish va tahlil qilish, bozor infratuzilmasi va agrologistikasini rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, siyosatni tahlil qilish, xodimlar malakasini har qanday darajaga oshirish va

monitoring qilish kabilar kiradi. Harbiy qism yordamchi xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, uzoq vaqt mobaynida sifatini buzmagun xolda saqlash va harbiy xizmatchilarga ushbu mahsulotlarni bir tekis ta‘minlash bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu masala juda katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga egadir. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo‘njallangan Harakatlar strategiyasida ham bu masalaning dolzarbligi alohida ta‘kidlangan. Mamlakatimizda iqtisodiyot rivojining keyingi yillarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirishni ko‘paytirish bilan birgalikda ularni chuqur qayta ishlash va saqlash masalalariga e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 6 yanvardagi “2017-2018 yillarda meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlashni yanada chuqurlashtirish va ularni saqlash bo‘yicha quvvatlarni barpo etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2716-son qaroriga asosan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini tayyor eksportbop darajaga yetkazish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda O‘zbekistonda harbiy qism va muassasalarda yordamchi xo‘jalik faoliyatini takomillashtirish yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchidan, yordamchi xo‘jaliklarning ahamiyati va davlat xususiy sherikchilik tushunchasiga ta‘riflari keltirildi.

Ikkinchidan mamlakat miqyosida hududlarni inobatgan holda barcha harbiy qismlar va muassasalarda yordamchi xo‘jaliklar faoliyatini klaster tizimiga o‘tkazishning nazariy jihatdan o‘rganildi.

Uchinchidan harbiy qismlar va muassasalarda yordamchi xo‘jaliklar tomonidan yetishtirilgan mahsulotlarni xom-ashyo sifatida emas, balki tayyor mahsulot holatiga keltirib realizatsiya qilish tizimini yo‘lga qo‘yish. Misol uchun, harbiy qismlar va muassasalarda yordamchi xo‘jaliklar tomonidan etishtirilgan don mahsulotlarini un mahsuloti yoki non mahsuloti holatiga keltirib keyin realizatsiya qilishni amalga oshirish fikrimizcha o‘zining ijobiy natijasini berishi ko‘rildi.

To‘rtinchidan yordamchi xo‘jaliklar faoliyatida chorvachilik va parrandachilikni yanada rivojlantirish uchun ekin ekishga mo‘ljallanmagan yerlardan foydalanish ko‘lamini kengaytirish maqsadga muvofiqligi keltirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 23- oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 10 mayda imzolangan “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida” O‘RQ-537-sonli Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 20- oktabr kunida “Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional bazasini yaratish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ- 3980- sonli qarori
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 13- dekabr kunida “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 1009- sonli qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 6 yanvardagi “2017-2018 yillarda meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlashni yanada chuqurlashtirish va ularni saqlash bo‘yicha quvvatlarni barpo etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2716-son qarori
6. Usmonjon o‘g, A. U. B., Alimjon o‘g‘li, A. A., Bobirovich, Y. A., & Jamshid o‘g‘li, X. M. (2023). The State Authority System of the Republic of Uzbekistan and Its Organization. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 3(8), 30-41.
7. Said o‘g‘li, S. S., & Abdurasul o‘g‘li, R. S. (2022). Psychological View of the Military Community. *Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress*, 1(2), 5- 12.
8. Usmonjon o‘g, A. U. B., Nishon o‘g‘li, T. D., Nodir o‘g‘li, B. J., & Shuhrat o‘g‘li, A. Z. (2023). Management of Professional Promotion of Employees in Organizations. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 3(8), 13-29.
9. Usmonjon o‘g, A. U. B., Ergashali o‘g, T. U. A., Sadulla o‘g‘li, Z. S., & Ravshanbek o‘g‘li, Q. A. (2023). Laws and Principles Of Management. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 4(6), 174-186. 10. Usmonjon o‘g, A. U. B., Raxmatullo o‘g, T. X. N., Hakimovich, H. P., & Jahongir o‘g‘li, F. J. (2023). Provision of Information to Management. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 4(7), 152-166. 11. Olimjon o‘g‘li, O. O., & Shuxrat o‘g‘li, Z. I. (2022). The Main Features and Signs of “Relations Contrary to the Charter”(On the Example of Russian Experience). *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal*, 1(5), 17-21